

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## O'QUVCHILARGA XORIJIY TILLARNI INTERFAOL USULLAR ORQALI O'RGATISH

Suvankulov Baxtiyor Mamarasulovich  
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Ushbu maqolada o'quvchilariga xorijiy tilni o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanish jarayoni haqida so'z boradi. Barchaga ma'lumki, bugungi rivojlanayotgan zamonda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Shu sababli davlatimiz rahbari xorijiy tilni o'qitish bo'yicha bir qancha imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Xususan, chet tilini o'qitishni turli xil interaktiv usullar orqali boshlang'ch sinfdan boshlab o'rgatish, ularni chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, imkoniyat, interfaol usullar, o'yin.

This article talks about the process of using interactive methods in the process of teaching a foreign language to elementary school students. Everyone knows that in today's developing world, the demand for learning foreign languages is increasing day by day. For this reason, the head of our state is opening the door to several opportunities for teaching foreign languages. In particular, foreign language teaching through various interactive methods is being implemented step by step, starting from elementary school, increasing their interest in learning foreign languages.

**Key words:** Primary education, opportunity, interactive methods, game.

Yurtimiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, yoshlarda chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish yuqori darajaga ko'tarilib bordi. Mamlakatimiz ertangi kuni va istiqbolini hozirgi yosh avlodni munosib qilib voyaga yetkazish ta'lim sohasini, ayniqsa chet tillarini o'rganishga bo'lgan talabni zamonaviy tarzda to'xtovsiz takomillashtirib borish bilan bog'liq.

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallab kelayotgan davlatimiz xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal o'rgatila boshlagani hech kimga sir emas.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Boshlang'ich ta'limdagi bolalarga chet tilini o'rgatish tizimining yo'lga qo'yilganligi zamonaviy ta'lim xizmatlaridan foydalanish va yoshlarni kelajagi porloq insonlar bo'lishga sababchi bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qaror bo'yicha chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'rganishda o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida darslarni interfaol usullar orqali, undan yuqori sinflarda buni bosqichma-bosqich o'tib borish boshlandi. Shu yuzasidan chet tillarini yanada rivojlantirishda bir qator ko'lamli ishlar amalga oshirishga kirishildi.

Hozirgi vaqtda o'quvchilarning idrok qilish faoliyatini, dunyoqarashi va fikrlashini rivojlantirish boshlang'ich ta'lim davrlaridanoq yo'lga qo'yildi. Bir qator rivojlangan mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi zamonaviy metodlar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasida katta tajribani zimmasiga oluvchi interfaol metodlardan qo'llanilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitiladigan interfaol ta'lim metodlarini yoshlarda ilm-fan borasida oliy darajadagi sifatli bilim berishni amalga oshirish uchun munosib tarzda tanlash zarur. Chunki interfaol usullarni ta'lim standartlariga muvofiq tarzda qo'llansa, albatta, ulkan zafarlarga erishiladi.

O'quvchilarga ta'limning ilk bosqichlaridanoq interaktiv usullar orqali dars jarayonlarini amalga oshirishda ta'lim oluvchilarda markazda bo'lish "imkoniyati" kengayadi.

Birinchi, o'quvchi ta'lim darajasi yuqori bo'lgan maskanda bilim oladi.

Ikkinchi, unga dars jarayonida erishib borayotgan yutuqlari uchun rag'batlantiriladi. Rag'bat esa bola ta'lim-tarbiyasi uchun eng muhim rol o'ynaydi.

Uchinchi, uning mas'uliyatini oshiradi va har jabhada tashabbuskorlikni qo'lga olishga undaydi.

Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dars jarayoniga mos usullarni ko'rib chiqamiz.

Har bir jarayon birinchi navbatda suhbat orqali amalga oshiriladi. Shu bois, o'quvchilarda eng avvalo suhbatlashish qobiliyatini o'stirishi lozim. Buning uchun o'qituvchilar suhbat metodidan foydalanishlari mumkin. Bunda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida ikki taraflama fikr-mulohazalar yuritila boshlaydi va bolaning ma'naviy va aqliy jihatdan salohiyati rivojlantirila boshlaydi.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Biz bilamizki, kichik yoshdagi o'quvchilar sho'x va o'yinqaroq bo'lishadi. Bundan kelib chiqadiki, ularga dars jarayonlarini turli xil didaktik o'yinlar va interfaol metodlarni qo'llab o'tish talab qilinadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi interfaol metodlardan foydalanish mumkin:

## 1. "Tarjimon" o'yini.

Bu bolalarni bilim darajasiga mos tarzda belgilangan xorijiy so'zlarni kim tezda topib o'zbek tiliga almashtirish jarayonidan iborat. Aynan xorijiy til bo'lganligi uchun ham bu o'yin juda samarali bo'adi. Chunki bu o'yin orqali o'quvchilar miya faoliyati, yodda saqlab qolish qobiliyatlarini amalga oshirishadi va xotirasini rivojlantiradi.

## 2. "So'z yasash" o'yini.

Bunda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan ingliz tilidagi ko'p harflardan tashkil topgan birikmadan turli xil yangi so'zlarni yaratishlari kerak bo'ladi. Bu usul orqali o'quvchilar ilgari o'tilgan so'zlat va mazvularni yodga olishadi va ularda ijodiy tafakkurni yanada faollashtiradi.

## 3. "Topishmoq o'yini".

O'qituvchi bu usul orqali bolalarning umumiy dunyoqarashini, ularningmustaqil qaror chiqara olishini va diqqatini rivojlantirishiga hissa qo'shishi mumkin. Bu usulda malakali pedagog turli xil murakkab bo'lmagan videovizual ko'rinishdagi topishmoqlarni taqdim etishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim-tarbiya tizimida interfaol usullardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarga, ularning ta'limiy qudratini faollashtirish, o'quv jarayonida aqliy kuchini o'stirib borish va yetuk qilib shakllantirishga samarali xizmat ko'rsatadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turdaliyeva Gulchehra Ne'matjonovna "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar" //2020.
2. Nodira Qurbonaliyeva "Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishning innovatsion usullari". "SCIENTIFIC PROGRESS" Scientific Journal.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

3. Jalilova Yoqutxon Shuxratjon qizi “Rus tili fanidan interfaol va didaktik o’yinlar bilan ishlash usullari”. Международный научный журнал "Научный импульс".
4. O.U. Avlayev, S.N. Jo’rayeva, S.P. Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o’quv- uslubiy qo’llanma, “Navro’z” nashriyoti, Toshkent – 2017.



# E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE  
SERIES